O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.T. Muxamedov
______________
2023 yil "28" 08 ______

# INNOVATSION MENEJMENT
# O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60411200-Menejment |

Chirchiq – 2023

| Fan/modul kodi INNMAN6 | O'quv yili 2025-2026 | Semestr 6 | ECTS - Kreditlar 6 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 8 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Innovatsion menejment | 120 | 60 | 180 |

2.

**I. Fanning mazmuni.**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga boshqaruv asoslarini makro va mikroiqtisodiy darajada o'rgatish asosida ularning yetuk va yuqori malakali mutaxassis bo'lishlarini xamda olingan bilimlari asosida uqish va ilmiy izlanishlarini davom ettirishlarini ta'minlash, yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shaklantirishdir.

Fanning vazifasi–Innovatsion menejment tamoyillarini, innavatsiyalarni boshqarishni,innavatsion menejer faoliyati,korxonalarni atrof-muhit o'zgarishlariga mos ravishda boshqarishni, turli vaziyatli holatlardan chiqish yo'llarini rejalashtirish, innovatsion menejmentni tashkil qilishni o'rganishdan iboratdir.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. "Innovatsion menejment" fanining nazariy asoslari**

Jahonda hozirgi taraqqiyot bosqichida innovatsion iqtisodiyotga o'tilayotgan bo'lib, u turli faoliyat sohalarida yangi texnologik yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirishning samarali tizimiga asoslanadi. Tabiiy resurslar mavjudligi va cheklanganligi muhim rol o'ynagan davrda texnologik rivojlanishni jadallashtirish uchun ularni iloji boricha samarali ishlatish lozim. Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotda innovatsion kashfiyot strategiyasini tanlash va amalga oshirish, tubdan yangi texnologiyalarni qo'llash hamda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishasosda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini ta'minlashimiz mumkin.

**2-mavzu. Innovatsion menejmentni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari**

Innovatsiyalar nazariyasi holatini va korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishni tashkil etish sharoitlarining tahlili ko'rsatishicha, innovatsion faoliyatning samaradorligi u qanchalik to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liq bo'ladi. Muayyan korxonada innovatsion faoliyat jarayonlarni tashkil etishning o'zi jiddiy muammolardan biriga aylanadi.Hozirgi kunda innovatsion jarayonni tashkil etishning ko'plab modellari ishlab chiqilgan bo'lib, ularning har biri korxona rivojlanishi darajasidan kelib chiqqan holda to'liq yoki qisman foydalanilishi mumkin.

**3-mavzu.Innovatsion faoliyat infratuzilmasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.**

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish infratuzilmasining asosiy tamoyillarini shakllantirishda milliy iqtisodiyot talablari va imkoniyatlariga mosligini, moslashuvchanlik holati, xalqaro iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Bunda milliy innovatsion tizimning bir segmenti sifatida funksional-to'laqonli innovatsion tuzilma yaratish zarur hisoblanadi.

**4-mavzu. Innovatsion menejmentni rivojlantirish omillari**

Xizmatlar sohasidagi mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar o'z ichiga quyidagi jarayonlarni olib, prinsipial jihatdan yangi xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etish, mavjud xizmatlarga yangi funksiyalar va xususiyatlar qo'shish orqali uni takomillashtirish, xizmatlar bilan ta'minlashda (masalan, ularning samaradorligi va tezligi nuqtai-nazaridan) sezilarli darajada yaxshilanishlarni kiritish mumkin.

**5-mavzu. Innovatsion iqtisodiyotda inson omilini faollashtirish**

Inson omilini faolligini oshirish, yangicha dunyoqarash va ishlab chiqarish madaniyatining shakllanishi murakkab jarayondir. U inson faoliyatini ongli asosini tashkil etadi.Inson omilining faolligi, turli xil ijtimoiy-siyosiy,iqtisodiy, ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonlarini qo'llab-quvvatlash yoki aksincha, unga o'ziga xos munosabatni bildirish jarayonida shakllanib boradi.

**6-mavzu.Innovatsion iqtisodiyotda xizmatlar bozorini rivojlantirish**

Globallashuv sharoitida iqtisodiy rivojlanishida ilm-fanning tutgan o'rnini belgilab olish va uni chuqur anglashga qiziqish tobora kuchayib bormoqda.Bilimlar iqtisodiyotiga o'tish mamlakatda yangi bilimlarni yangi texnologiyalarga, milliy va global bozorlarda o'z haqiqiy iste'molchilarini topa oladigan mahsulot va xizmatlarga samarali tarzda aylantira oladigan yaxlit bir tizimini shakllantirishni talab etmoqda.

**7-mavzu. Innovatsiyalarning sohalar bo'yicha turlari**

Marketing innovatsiyalari deganda yangi yoki sezilarli yaxshilangan marketing uslublarini joriy etish tushuniladi. Bular o'z ichiga mahsulotlarning dizayni va qadoqlanishida jiddiy o'zgartirishlarni, mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo'yicha, shuningdek ularni bozorlarga tanitish va olg'a siljitish bo'yicha yangi uslublardan foydalanish, yangi narx strategiyalarini shakllantirishni oladi.

**8-mavzu. Iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish**

Mamlakatimizda Yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish va barcha tarmoqlarda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Har qanday tarmoqni rivojlanishi bevosita shu sohaga tegishli ilm-fan taraqqiyoti va ular negizida yaratilgan innovatsion texnologiyalar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

**9-mavzu. Innovatsion menejmentni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish.**

Faol innovatsion siyosatni amalga oshirish muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Innovatsion faoliyat bugungi kunda va yaqin kelajakda respublika iqtisodiyoti rivojlanishining muhim shartlaridan biri, ishlab chiqarish va tarmoqlarni modernizatsiyalashning real mexanizmlari bo'lib hisoblanadi.

**10-mavzu. Korxonalarda eksport salohiyatini oshirishda innovatsion marketing texnologiyalaridan samarali foydalanish**

Marketing texnologiyalarini qo'llar ekan, korxona maqsadli segmentda ishlashi, xaridorlarning ehtiyojlarini chuqurroq tushunish hisobiga maqsadli segmentda sotuvni ta'minlashi, xaridorlar ehtiyojlarini va bozorning rivojlanish tendensiyalarini yaxshiroq bilish hisobiga boshqa kompaniyalar bilan muvaffaqiyatli raqobat qilishi, korxona maqsadlariga qarab foydalilikni oshirishi yoki bozorda kattaroq ulush egallab olishi mumkin.

**11-mavzu. O'zbekiston milliy innovatsion tizimi**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ichkiva tashqi bozorlarda ham xaridorgir, ilm talab va yuksak texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarishning o'rni katta. Shu bois, butun dunyoda yangi va ilg'or texnologiyalarni bozor qiymati oshib bormoqda. O'zbekiston bu yo'nalishda o'ziga xos salohiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda davlatimiz rahbarining ilm-fanni rivojlantirishga katta e'tibor qaratayotgani tufayli ushbu salohiyat yuksalib bormoqda.

**12-mavzu. Intellektual kapital va intelektual mulkni shakllantirish va boshqarish**

Respublikamizda innovatsiya infratuzilmasini shakllantirish hozirda institutlar va yordamchi innovatsion korxonalar asosida barpo etilmoqda. Ular tarmoqlar innovatsiyasini rivojlanishini ko'pgina masalalarini hal qiladi.

Respublikamiz oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlarida innovatsion jarayon tashkil qilish masalalariga tarmoqlar doirasida e'tibor qaratilmoqda. Ishlab chiqaruvchilar va korxonalarning innovatsiya jarayonlarda ishtirok etish uchun mablag'larni ajratish maqsadida zaruriy sharoitlar yaratilmoqda..

**13-mavzu. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash**

Ishlab chiqarish texnikasi yoki yangi jarayon ko'rinishidagi texnik o'zgarishlar texnik ixtirolar va kashfiyotlarni ta'riflash uchun ishlatiladi. Bunday kashfiyotlar ishlab chiqarish va xarajatlarni firma va sanoat tarmoqlari darajasida o'zgartirishi mumkin

**14-mavzu. Innovatsion iqtisodiyotda menejment strategiyalari**

Innovatsion faoliyatning nazariy asoslari iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, Avstriyalik olim Y.Shumpeter innovatsion o'zgarishlarni besh yo'nalishga bo'lganbo'lib, yangi texnika va texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishni yangi bozor asosida ta'minlash, yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot turlarini yaratish, yangi xomashyolardan foydalanish, ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yangi innovatsion tovarlar bilan ta'minlash, yangi iste'mol bozorlarini ochish

**15-mavzu. Innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish**

Bugungi kunda mamlakatimizdagi korxonalar faoliyatida innovatsion marketing usullaridan foydalanishda yangi tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarishga va ularni bozorga kiritishga, korxonaning bozordagi brendini yanada kuchaytirishga, reklama faoliyati samaradorligini oshirish, ichki va tashqi bozorlarda tovarlar raqobatbardoshligi va sifatini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda .

## III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1."Innovatsion iqtisodiyot" fanining nazariy asoslari
2. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari
3. Innovatsion faoliyat infratuzilmasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.
4. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish omillari
5. Innovatsion iqtisodiyotda inson omilini faollashtirish
6. Innovatsion iqtisodiyotda xizmatlar bozorini rivojlantirish
7. Innovatsiyalarning sohalar bo'yicha turlari
8. Iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish
9. Korxonalarda eksport salohiyatini oshirishda innovatsion marketing texnologiyalaridan samarali foydalanish

| | |
|---|---|
| | 10. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish.<br>11. O'zbekiston milliy innovatsion tizimi<br>12. Intellektual kapital va intelektual mulkni shakllantirish va boshqarish<br>13. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash<br>14. Innovatsion iqtisodiyotda menejment strategiyalari<br>15. Innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish<br>16. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi<br>17. Iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish zarurati<br>18.Moliyaviy innavatsiyaning sinfi<br>19.Xodimlarni innavatsion boshqarish<br>20.Samarali innavatsion dasturni tanlash<br>21.Innovatsiyalarning klassifikatsiyasi (turlari)<br>22. Innovatsion loyha va uning xususiyatlari.<br>23. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy- me'yoriy va iqtisodiy asoslari.<br>24. O'zbekiston innovatsion tizimini rivojlantirish sohasida davlat siyosati.<br>25. Innovatsion infratuzilma va uning elementlari.<br>26. Intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish va boshqarish.<br>27. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash.<br>28. Patentlar va patent axborotlarini izlash<br>29. Innovatsiyalarning endogen xususiyatlari<br>30. Raqobatbardoshlik – innovatsion faoliyatni mezoni sifatida.<br>31. Innovatsion echimlarning raqobatbardoshlik darajasining baholash<br>32. Innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish manbalari va shakllari.<br>33. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro tashkilotlarning roli.<br>34. Innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun investitsion resurslarini ichki manbalari.<br>35. Innovatsion faoliyat investitsion resurslarini shakllantirishni tashqi manbalari.<br>36. Innovatsion loyihalarni samaradorligini baholash uslublari.<br>37. Kompaniyalar innovatsion loyihalarni samaradorligini baholashda pul oqimining tarkibi.<br>38. Axborotlar noaniqligi va tavakkalchilik sharoitida innovatsion loyihalarni samaradorligini baholash.<br>39. Innovatsion taraqqiyotning xorij tajribasi.<br>40. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi va rivojlanishi.<br>41. Mamlakatning innovatsion rivojlanishini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimi.<br>42.Innavatsion marketing.<br>43.Innavatsiyaning prognoz turlari<br>44. Innavatsion loyiha va uning samaradorligini baholash metodlari<br>45.Internet va innovatsiyalarining o'zaro bog'liqligi |

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Innovatsion iqtisodiyot asoslari fanining predmeti, maqsadi, vazifasi hamda tadqiqot usullari.
2. Innovatsiyalarning klassifikatsiyasi (turlari)
3. Innovatsion loyha va uning xususiyatlari.
4. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy- me'yoriy va iqtisodiy asoslari.
5. O'zbekiston innovatsion tizimini rivojlantirish sohasida davlat siyosati.
6. Innovatsion infratuzilma va uning elementlari.
7. Intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish va boshqarish.
8. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash.
9. Patentlar va patent axborotlarini izlash
10. Innovatsiyalarning endogen xususiyatlari
11. Raqobatbardoshlik – innovatsion faoliyatni mezoni sifatida.
12. Innovatsion echimlarning raqobatbardoshlik darajasining baholash
13. Innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish manbalari va shakllari.
14. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro tashkilotlarning roli.
15. Innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun investitsion resurslarini ichki manbalari.
16. Innovatsion faoliyat investitsion resurslarini shakllantirishni tashqi manbalari.
17. Innovatsion loyihalarni samaradorligini baholash uslublari.
18. Kompaniyalar innovatsion loyihalarni samaradorligini baholashda pul oqimining tarkibi.
19. Axborotlar noaniqligi va tavakkalchilik sharoitida innovatsion loyihalarni samaradorligini baholash.
20. Innovatsion taraqqiyotning xorij tajribasi.
21. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi va rivojlanishi.
22. Mamlakatning innovatsion rivojlanishini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimi.
23. Innavatsion marketing.
24. Innavatsiyaning prognoz turlari
25. Innavatsion loyiha va uning samaradorligini baholash metodlari
26. Internet va innovatsiyalarining o'zaro bog'liqligi
27. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash
28. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish omillari

| | |
|---|---|
| | 29. Intellektual kapital va intelektual mulkni shakllantirish va boshqarish<br>30. Xodimlarni innavatsion boshqarish |
| 3. | **VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>**tasavvurga ega bo'lishi;** Innovatsiyalarning klassifikatsiyasi, innovatsion loyha va uning xususiyatlari, O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy- me'yoriy va iqtisodiy asoslari, kompaniyalar innovatsion loyihalarni samaradorligini baholashda pul oqimining tarkibi bilan tanishtirishdan iborat.<br>Ushbu kursda talabalar Innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish manbalari va shakllari, intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish va boshqarish hamda uni ta'minlash chora-tadbirlari ularni amaliyotga tatbiq etishni o`rganadilar. **(bilim)**<br><br>• Innovatsion infratuzilma va uning elementlari;<br>• Raqobatbardoshlik – innovatsion faoliyatni mezoni sifatida;<br>• O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi va rivojlanishi;<br>• Kelajakdagi kasbiy faoliyatda innovatsion iqtisodiyot asoslari fani bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi<br>• ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etadi **foydalana olishi; (ko'nikma).**<br>- Innovatsiyalarning klassifikatsiyasi, innovatsion loyha va uning xususiyatlari, O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy- me'yoriy va iqtisodiy asoslari, kompaniyalar innovatsion loyihalarni samaradorligini baholashda pul oqimining tarkibi bilan tanishtirishdan iborat.<br>Ushbu kursda talabalar Innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish manbalari va shakllari, intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish va boshqarish hamda uni ta'minlash chora-tadbirlari ularni amaliyotga tatbiq etishni o`rganadilar. **malakalarga ega bo'lishi kerak.** |
| 4. | **VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **X. Asosiy adabiyotlar:** |

| | |
|---|---|
| | 1. A.Ulmasov A. Voxobov Innovatsion iqtisodiyot asoslari. Toshkent Iqtisod-moliya<br>2. A.Taniyev. Innavatsiyon iqtisodiyot asoslari. Samarqant-2020<br>3. R.I.Gimush, F.M.Matmurodov Innavatsiyon menejment Toshkent-2008<br>4.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O‘zbekistan, 2018 yil<br><br>**XI. Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. O‘zbekiston Respublikasining 2015-2018 yillarda A.Ulmasov A. Voxobov Innovatsion iqtisodiyot asoslari. Toshkent Iqtisod-moliya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. WWW/ stat.uz.<br>2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 maydagi “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3697- son<br>3. O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi “O’zbekiston” 2008 y.<br>4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 7 iyundagi “Har bir oila — tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi Qarori// "Xalq so‘zi", 2018 yil 8 iyun<br>5. Malikov TS., Haydarov N.H. Byudjet daromadlari va xarajatlari. / O'quv qo'llanma. - T.: «lqtisod-moliya», 2007<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. www.cspu.uz<br>2. www.pedagog.uz<br>3. www.edu.uz<br>4. www.ziyo.edu.uz<br>5. www.gov.uz<br>6. www.ziyonet.uz<br>7. www.istedod.uz |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “29” 08 dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma’sul:**<br>Y.R.Tursunbayeva CHDPU, “Maktab menejmenti” kafedrasi o’qituvchisi. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br><br>**J.E.Usarov** - Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Pedagogika” fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor<br>**A.N.Maxmudov** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliyaviy tahdit va audit” kafedrasi iqtisod fanlar nomzodi, dotsenti |